

**MINTAQADA IJTIMOYIY SOHANING FAROVONLIKNI
TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI**

Samiyeva G.T. ¹

¹ QarMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

Shermatova N.Z. ¹

¹ QarMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası

2-kurs magistratura talabasi

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 11.01.2025

Revised: 12.01.2025

Accepted: 13.01.2025

Ma'lumki, iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun ijtimoiy soha eng ahamiyatli, shu bilan birga demokratik, adolatli jamiyat qurishning muhim omillaridan hisoblanadi.

KALIT SO'ZLAR:

Jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy soha barqaror muhitining doimiy ta'minlab borilishi mamlakatlar kelgusi taraqqiyotining muhim asosi hisoblanadi.

KIRISH. Ma'lumki, iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun ijtimoiy soha eng ahamiyatli, shu bilan birga demokratik, adolatli jamiyat qurishning muhim omillaridan hisoblanadi. Jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy soha barqaror muhitining doimiy ta'minlab borilishi mamlakatlar kelgusi taraqqiyotining muhim asosi hisoblanadi. Mazkur jarayon jamiyatda fuqarolarning iqtisodiy sohadagi huquq va manfaatlarini ta'minlash, farovon hamda obod turmushini yanada samarali tashkil etilishiga muhim zamin yaratadi, uning hayotiyligini

ta'minlaydi. Jamiyat o'zgarib borar ekan, odamlarning hayotiy farovonlikka ega bo'lishga qaratilgan ehtiyojlari ham rivojlanib boradi.

Mazkur farovon jamiyatga erishish uchun jamiyatda barcha sohalarda, ayniqsa ijtimoiy sohada uchraydigan muammolarni hal etib borish lozimdir. Jamiyatdagi inson faravonligini ta'minlash, mavjud muammolarni bartaraf etib borish lozimligi haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlagan: "Insonlarning dardu tashvishini o'ylab yashash biz uchun odamiylikning eng oliy mezoni, eng muhim vazifa bo'lib qolishini alohida ta'kidlamoqchiman. Chunki xalqimiz o'z hayotidagi ijobiy o'zgarishlarni kelajakda emas, balki bugun ko'rishni, ulardan bugun bahramand bo'lishni istaydi. Aholimizning ana shunday tabiiy istak va talablarini bajarish barcha rahbar va yetakchilarning asosiy burchi va vazifasiga aylanishi shart"³⁶.

Iqtisodiy barqarorlik va unga to'siq bo'ladigan salbiy hodisa va jarayonlarning o'zaro bir-biriga ta'siri va muntazam sharoitlari o'rganilib, iqtisodiy tizimning muvozanatiga nomuvofiqligi va qarama-qarshi hodisasi sifatida tadqiq etilishi lozim. Alohida olingan muammolar va salbiy hodisalarni o'rganish, tahlil etish, uning o'sish va rivojlanish dinamikasini o'rganish va ularni bartaraf etish yo'llarini tadqiq etishga ehtiyoj sezilmoqda. Bugungi iqtisodiy fanlar doirasida jamiyatning ijtimoiy sohasi bilan aloqador bo'lgan bir qancha muammolar hamda salbiy omillar bilan bog'liq tushunchalar mavjudki, ularning tadqiq etilishi dolzarb masaladir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilangani bilan kelgusi 5 yilga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi, xalqimiz turmush farovonligini oshirishning "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Mazkur davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti yanada barqaror rivojlanishga erishishi uchun strategiyada belgilangan yo'nalishlarning barchasi aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

E.Tulyakovning ta'kidlashicha, "taraqqiyot strategiyasida boshqa ustuvor vazifalar bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o'sishiga erishish, raqamli iqtisodiyotni drayver sohaga aylantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy resurslarni ko'paytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish, eksport salohiyatini oshirish choralari ko'zda tutilgan"³⁷. Jamiyat taraqqiy etib borar ekan, uning iqtisodiy sohasi ham yangi an'analar va

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. - T., 2017 y

³⁷Tulyakov E. Taraqqiyot strategiyasi: iqtisodiy barqarorlik va farovonlik yo'lida// <https://uza.uz/uz/posts/taraqqiyot-strategiyasi-iqtisodiy-barqarorlik-va-farovonlik-yo'lida>

tajribalar asosida rivojlanib boradi. Har bir sohani o'z rivojlanish yo'lida to'siqlar va muammolari mavjud bo'ladi. Iqtisodiy hayotning mazmun-mohiyatiga, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalar va tadbirkorlikni rivojlantirish sohasi, kishilar turmush tarziga putur yetkazishi mumkin bo'lgan salbiy omillarni ko'rsatib berish va uni oldini olish va tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

A.Saitqosimovning fikricha, "Jamiyat hayotidagi muammolar – bu jamiyat sohalarida barqaror muhitni ta'minlashga salbiy ta'sir etuvchi jihatlari, omillar va shart-sharoitlar yig'indisi (majmuasi)dir. Muammolarni o'rganish va bartaraf etish esa jamiyat va inson hayoti farovonligini ta'minlashga qaratilgan jarayonlarni ta'minlab, shu asnoda jamiyatning barqaror, osoyishta hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi"³⁸. Jamiyatda milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, davlat miqyosida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan turli chora-tadbirlarning amaliyotga joriy etilishi inson hayot farovonligini ta'minlaydi, ularning hayotida mavjud bo'lgan muammolarni ham hal etib boradi. Muammolarni hal etish va salbiy omillarga karshi kurash iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish, tadbirkorlik uchun chinakam erkinlikni ta'minlashdagi to'siqlarni bartaraf etadi. Jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda uning sohalar va tarkibiy qismlarida, inson hayoti va turmush tarzida mavjud bo'ladigan muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolariga xorij olimlarining ko'plab tadqiqot ishlari bag'ishlangan. Ularning tadqiqot ishida mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning elementlari, belgilari, hududiy boshqaruvning dasturiy maqsadli usullari, hududiy boshqaruvning xorijiy va mahalliy amaliyotlari, zamonaviy boshqaruv yangiliklari, shu jumladan, ijtimoiy-psixologik jihatlari o'rganilgan. A.V. Pogoninning maqolasida shahar va klasterlarning asosiy rolini hisobga olgan holda mintaqa rivojlanishining asosiy omillari aniqlangan³⁹ bo'lib, unda shaharlarning hududlar iyerarxiyasidagi o'rnini aniqlash bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi. D.A.Kondratyevning maqolasida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tasnifi aniqlangan.

Qishloq munitsipaliteti shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi konsepsiyasi va mohiyati ochib berilgan⁴⁰. M.A.Nikolayev, M.Y.Maxotayeva tadqiqotlari esa mintaqaviy

³⁸ Saitqosimov A. Jamiyat barqarorligi va ijtimoiy muammolarni hal etish. – Toshkent, —Tafakkurl, 2018. – B. 8.

³⁹ Погонин А.В. Экономическое развитие региона с учетом кластерного подхода в контексте экономики города. Вестник Пермского университета. 2012. ЭКОНОМИКА. Вып. 4(15).

⁴⁰ Кондратьев Д.А. Понятие и сущность социально-экономического развития муниципального образования. <https://readera.org/ponjatie-i-sushnost-socialno-jekonomicheskogo-razvitija-municipalno-142111110>.

iqtisodiyot masalalari taqdimotiga bag'ishlangan⁴¹. Xususan, mualliflar konseptual apparatni, shuningdek, turli darajadagi hududiy tizimlardagi jarayonlarni o'rganishning asosiy nazariy yondashuvlarini taqdim etadi. Professor M.Y.Sheresheva tahriri ostida yozilgan monografiyada munitsipalitetlarning tarmoqdagi o'zaro ta'sirini o'rganishning nazariy jihatlari o'rganilib, uni modellashtirishning amaldagi usullari va yondashuvlari yoritilgan⁴². M.A.Anishenko, O.K.Volivak va boshqa mualliflar monografiyasida fan va ta'limning muayyan sohalarida nazariy yondashuvlar va tushunchalar, tahliliy sharhlar, amaliy yechimlar keltirilgan⁴³. O'zbekistonlik tadqiqotchi X.S.Asadov-ning maqolasida mamlakatimiz hududlari iqtisodiy o'sish dinamikasi, ularning tabaqalanishi, mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarishining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlar va mavjud nomutanosibliklar tahlil qilingan⁴⁴. Shular bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning maqsad va vazifalari, unda "talab va iste'mol" darajasi ko'rsatkichi asosiy mezon sifatida taklif qilingan. I.I.Geysin va boshqalarning ilmiy ishlarida tabiiy muhit va ishlab chiqarish, moddiy boylik saqlanishi hududning rivojlanishini "aholi sifati"ni belgilovchi baholash mezoni deb taklif etgan⁴⁵.

Hozirgi sharoitda ijtimoiy siyosat, iqtisodiyotni jadal rivojlanishini hamda mintaqada yangi ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirishning kuchli vositasi sifatida qaralmoqda. Mehnat, turmush, madaniyat va insonlarning manfaatlari va ehtiyojlarini qondirishning ijtimoiy masalalarini yechish barcha davlat va xo'jalik organlari, shu jumladan, jamoat tashkilotlarining asosiy faoliyati hisoblanishi kerak.

Mintaqada ijtimoiy sohani rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilganda asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilanadi:

1. Zamonaviy demografik vaziyat, aholining ko'payish tendensiyalarini baholash, aholi soni, mehnat resurslari va ularning yoshi va yosh tarkibi bo'yicha prognoz qilishni amalga

⁴¹ Николаев М.А., Махотаева М.Ю. Региональная экономика и управление территориальным развитием. Учебное пособие. – Псков: Псковский государственный университет, 2014. –256 с

⁴² Социально-экономическое развитие малых городов на основе сетевого взаимодействия: коллективная монография / под ред. д-ра экон. наук, проф. М.Ю. Шерешевой. — М.: Экономический факультет МГУ имени М.В. Ломоносова, 2020. — 394 с.

⁴³ Социально-экономическое развитие: Вопросы теории и практики: монография / Под общ. ред. Г. Ю. Гуляева — Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». — 2020. — 144 с.

⁴⁴ Асадов Х.С. Современные тенденции экономического развития регионов Узбекистана. Экономика Центральной Азии. Том 4, Номер 3, июль-сен. 2020. Основы системного подхода и их приложение к разработке территориальных автоматизированных систем. ТГУ, Томск, 1976. -17-22 стр.

⁴⁵ Гейцин И.И. и др. Распределенные информационные системы территориального управления/ ВЦ СОАН. – Новосибирск, 1989

oshirish kerak. Shu asosda hududda olib borilayotgan demografik vaziyat va umuman hududdagi mehnat resurslarining bandligiga nisbatan demografik siyosatning eng muhim yo'nalishlarini aniqlash kerak.

2. Aholi turmush darajasining eng muhim ko'rsatkichi kishi boshiga oziq-ovqat va boshqa ne'matlarining iste'moli hisoblanadi. Shuning uchun aholining oziq-ovqat masulotlariga bo'lgan talabini ularning narxi bilan prognoz qilish, birinchidan, aholi daromadlarining zarur darajasini, ikkinchidan, qishloq va shahar aholisi iste'moli uchun ajratilgan ishlab chiqarish hajmlarini aniqlashga imkon beradi. Dasturda aholining o'sishi, aholi jon boshiga ishlab chiqarishga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda oziq-ovqat ta'minotini prognozlashga maxsus bo'lim bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligini xususiy va individual sektorlarda rivojlantirish bo'yicha prognoz ko'zda tutiladi.

3. Dasturda mintaqaning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish muammosiga katta o'rin ajratilishi kerak. Aholining o'sishi hisobga olinishi bilan uy-joy, sog'liqni saqlash muassasalari, bolalar bog'chalari va maktabgacha bo'lgan ehtiyojini prognozlashni amalga oshirish zarur. Bularning barchasi qishloqni ijtimoiy qayta qurish dasturining tegishli bo'limlarini ishlab chiqishga va unga erishish marralarini belgilashga imkon beradi. qishga va unga erishish marralarini belgilashga imkon beradi.

4. Mintaqaning ijtimoiy rivojlanishini xalq xo'jaligi tarmoqlarining ishlashi va rivojlanishini integratsiyalashgan holda ko'rib chiqish lozim. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarining maqsadli belgilanishi, asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonni kuzatib borish va zarurati bo'lsa dasturlarga o'z vaqtida u yoki bu tuzatishlarni kiritish imkonini beradi. Bularning barchasi aholi turmush darajasini oshirishni boshqarish va rejalashtirishda subyektivlik imkoniyatining oldini oladi. Shu munosabat bilan dasturlarni ishlab chiqilayotgan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash mezonlarini ishlab chiqish talab etiladi. Aholining sifat koeffitsiyenti va o'rtacha intellekt koeffitsiyentining vaqt bo'yicha o'zgarishi dinamikasi bu ko'payishning rivojlanish yo'nalishini ko'rsatadi va sabablarni o'z vaqtida tahlil qilishga va zarur qarorlarni qabul qilishga, ya'ni aholining o'sishini boshqarishga imkon beradi. Taklif etilayotgan mezonning mohiyati global rivojlanish modelida ochib berilgan: aholi soni va uning sifati zarur moddiy tovarlarni ishlab chiqarish insonlarning tabiiy yashash muhiti ko'rsatkichlarining yomonlashishiga olib kelmaydigan darajada saqlanishi kerak. Bunday modelni amalga oshirish uchun mualliflar global monitoring qilishning uchta tizimlari – aholi, tabiiy (ekologik, ob-havo va boshq.) muhit, ishlab chiqarish tizimlarini yaratishni taklif qilishgan. Bunday tizimlarning tarkibiy qismi, mahalliy yoki hududiy tizimlar bo'lishi kerak, chunki

bu tizimlar tovar ayirboshlash va takror ishlab chiqarishda o‘zaro bog‘liq. Shundan kelib chiqish bilangina, mahalliy (hududiy) rivojlanish modeli quriladi. Uning asosiy sharti, “tabiiy muhitni saqlab qolish va bu hududda zarur bo‘lgan yashash sifatini ta’minlash” hisoblanadi.

Ijtimoiy soha deganda, inson hayoti faoliyati barcha sharoitlari yig‘indisini, moddiy va ma’naviy ne’matlarni kafolatlovchi ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, pensiya ta’minoti, uy-joy kommunal xo‘jaligi, jismoniy tarbiya va sport, maishiy va ijtimoiy himoya sohasidagi davlat siyosatining ustuvor jihatlari aks etgan muayyan tizimi tushuniladi. Ushbu xizmatlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilish natijasida ma’naviy boy va jismoniy sog‘lom kishilarni shakllantirish imkoniyatlari kengayadi (1-rasm).



1-rasm. Ijtimoiy soha tarkibi⁴⁶

Bugungi kunda davlatning ijtimoiy siyosati aynan aholining sifatli turmush kechirishiga qaratilgan. Bunda “ijtimoiy soha”, “ijtimoiy himoya” kabi tushunchalarning ahamiyati katta.

⁴⁶ Kalanov B.Z., Kalanova M.Z., Muhamedjonova G.Y. “Ijtimoiy soha iqtisodiyoti” o‘quv kursi bo‘yicha o‘quv uslubiy majmua ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Bu soʻz birikmalari iqtisodiy, siyosiy va davlatshunoslikka oid atamalar hisoblanadi. “Ijtimoiy soha” koʻpchilikning manfaatlariga tegishli sohani anglatadi. “Koʻpchilikni himoya qilish” degan tushunchani ham bildiradi, tor maʼnoda, aholining muhtoj va nochor toifalarini moddiy va maʼnaviy himoya qilishni nazarda tutadi. “Ijtimoiy” soʻzi arabcha “jam” dan yasalgan boʻlib, koʻpchilik, toʻplanish degan maʼnolarda ishlatiladi. “Jamiyatga, yaʼni koʻpchilikka tegishli” degan maʼnoni anglatadi⁴⁷.

Ijtimoiy sohaga eʼtiborning koʻlamini, soʻnggi yillarda bu borada qabul qilinayotgan qonunosti hujjatlarining muhimlarini eslash orqali bilish mumkin:

1. Oʻzbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun belgilab berilgan yoʻnalishlar;
2. yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yoʻnalishlar;
3. yurtimiz fuqarolari uchun arzon uy-joylar barpo etilishi;
4. mehnat bilan bandligini taʼminlash uchun qilinayotgan ishlar;
5. ikki sotixli namunali uy-joylar, shuningdek, ikki-uch xonali koʻp qavatli uylarning qurilishi;
6. taʼlimni rivojlantirish uchun milliy modellarning joriy etilishi;
7. sport va turizmga eʼtiborning kuchayishi;
8. imtiyozli kreditlarning joriy etilishi va h.k.

Ijtimoiy sohaning oʻziga xos qonuniyatlari mavjud, ular quyidagilarda aks etgan:

1. Ijtimoiy sohada qiymat tushunchasi boʻlmaydi, chunki qiymat yaratish uchun moddiy neʼmatlar barpo etilmaydi, aksincha xizmat koʻrsatiladi.
2. Xizmat koʻrsatish sohalari mehnati moddiy ishlab chiqarish sohalari mehnatidan alohida tomonlari bilan farq qiladi, yaʼni bu soha xodimlari alohida odamlar bilan muloqotda boʻladilar, bu esa xodimlardan yuksak sifatli kasb mahoratini talab etadi
3. Ijtimoiy sohani joylashtirishda tabiat omili moddiy ishlab chiqarish sohasini joylashtirishdagi kabi ahamiyatga ega emas. Xizmat koʻrsatish sohasining asosiy ishlab chiqarish fondlari moddiy ishlab chiqarish mehnat vositalariga tashqi koʻrinishdan oʻxshashi mumkin. Iqtisodiy mohiyati esa bir-biriga oʻxshamaydigan, chunki moddiy ishlab chiqarishda mehnat vositalari oʻz qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga asta-sekin oʻtkaza borib amortizatsiya ajratmasi sifatida oʻz qiymatini tiklasa, ijtimoiy sohada isteʼmol natijasida mehnat vositalari oʻz qiymatini yoʻqotadi va moddiy ishlab chiqarish sohalari tomonidan yaratilgan milliy daromad hisobiga ular qayta tiklanadi

⁴⁷ S.N.Xamrayeva, G.Samiyeva “Ijtimoiy soha iqtisodiyoti” darsligi, T. 2022

4. Ijtimoiy sohada xizmat ko'rsatish sohalari mehnatining faqat oz miqdori mexanizatsiyalashtiriladi va avtomatlashtiradi. Ijtimoiy sohada mehnat hajmini kengaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish asosan mehnat resurslari sonini ko'paytirish mehnat hamda boshqarishni tashkil qilishning taraqqiyolashgan usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

5. Ijtimoiy sohada xizmat iste'mol predmeti hisoblanadi. Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohalarning xizmatida bepul bo'lganlari ham bor. Respublikamizda ijtimoiy sohada ma'lum xizmat turlari pullik ko'rinishda amalga oshirilmogda, lekin bunday xizmat ko'rsatishda ham ma'lum doiradagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj toifadagi odamlarga ma'lum yengilliklar berilmogda.

6. Ijtimoiy sohada pirovard natija jamiyat yoki shaxsning alohida ehtiyojini qondirish bilan o'lchanadi. Ijtimoiy soha mehnat faoliyati ana shu yo'nalishga qaratilgan. Lekin, mehnat jarayonining yo'nalishi va maqsadini aniqlash ijtimoiy soha xodimlarining mehnat natijalariga to'liq bog'liq emas. Masalan, inson salomatligi faqat tibbiyot xodimlari mehnat faoliyatiga emas, balki genetik omillar, mehnat sharoitlari va yashash manbalariga ham bog'liq. O'quvchining bilim darajasi faqat pedagog mehnatiga emas, balki boshqa shartlarga, ya'ni o'quvchining salohiyatiga ham bog'liq. Shunday qilib xizmat ko'rsatish xodimlari mehnatining pirovard natijasi to'liq shakllanmay qolish ehtimoli bo'lishi natijaning yaxshi bo'lishiga ular o'z hissalarini qo'shadilar.

7. Ijtimoiy sohaning faoliyat yuritishi ikki hil usulda, ya'ni budget hamda xo'jalik hisobidan moliyalashtiriladi.

8. Xizmat ko'rsatish sohalari xodimlariga ish haqi to'lashni tashkil qilish o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xodimlarning ish haqi manbalari bu sohadan tashqari shakllanadi: moddiy ishlab chiqarish xodimlari yaratgan milliy daromad hisobiga ijtimoiy soha xodimlari ish haqlari milliy daromadning turli qismlarida tashkil topadi, demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кенжабаев, Ш. А. (1998). История обучения иностранному языку в общеобразовательной школе южных областей Узбекистана (Сурхандарьинская и Кашкардарьинская области) и пути его совершенствования на современном этапе.

2. Abdulxalimovich, K. S. (2024). VETERINARIYA YO 'NALISHIDAGI TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O 'QITISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 39(2), 77-81.

3. Abdulxalimovich, K. S. (2024). VETERINARIYA YO 'NALISHIDAGI TALABALARNING KASBIY KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINI O 'QITISHNING TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI. Journal of new century innovations, 46(3), 119-126.

4. Abdulkhalimovich, K. S. (2024). SCIENTIFIC-THEORETICAL PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING THE TECHNOLOGIES OF TEACHING ENGLISH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF STUDENTS IN THE VETERINARY DIRECTION. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(2), 22-28.

5. Kenjaboev, Sh. A. (2023). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ВЕТЕРИНАРОВ. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(3), 103-113.

6. Kenjaboev, Sh. A. (2023). ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ-ВЕТЕРИНАРОВ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 17, 177-183.

7. Nishonov, M., & Kenjaboev, S. (2023). THE SIGNIFICANCE OF THE USE OF CHEMICAL EXPERIMENTS IN THE STUDY OF THE TOPIC " PATTERNS OF CHEMICAL REACTIONS". Science and innovation, 2(B5), 53-56.

8. Kenjaboev, S. (2023). FEATURES OF TEACHING ENGLISH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 166-170.

9. Kenjaboev, S. (2023). THE PROBLEM AND SOLUTION OF USING ENGLISH LANGUAGE TEACHING TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 159-165.

10. Аблаева, Н. К., & Зулунова, К. К. (2024). ТЕМА " МАЛЕНЬКОГО ЧЕЛОВЕКА " В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПУШКИНА (" ПОВЕСТИ БЕЛКИНА "). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ " МА' MUN SCIENCE ", 2(1).

11. Аблаева, Н. К. (2023). МНОГООБРАЗИЕ ТЕМ В ПОЭЗИИ БАБУРА. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 566-569.

12.Аблаева, Н. К., & Атаназарова, Х. М. (2024). ПЕЙЗАЖНАЯ ЛИРИКА ФЕТА. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 1(4), 188-193.

13.Аблаева, Н. К., & Хасанова, Ш. К. (2024). АФОРИЗМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ГРИБОЕДОВА (" ГОРЕ ОТ УМА"). YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(4), 264-268.

14.Аблаева, Н. К. (2024). «НАРОДНАЯ ДРАМА» АН ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА» В КОНТЕКСТЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ И ОБРЯДОВЫХ ТРАДИЦИЙ. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 24-29.

15.Аблаева, Н. К., & Сапарбаева, С. Б. (2024). ГЕРОЙ НАШЕГО ВРЕМЕНИ"- ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ РОМАН РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ. Miasto Przyszłości, 46, 693-697.

Аблаева, Н. К. (2023). «ТЕНЬ МОЯ НА СТЕНАХ ТВОИХ».(Восточные мотивы в творчестве Анны Ахматовой). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ "MA'MUN SCIENCE", 1(1).

16.Абдулазизова, С. М., & Мадрахимова, З. Ф. (2024). ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 94-96.

17.Мадрахимова, З. Ф. (2023). СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВУЗЕ. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(1), 94-97.

18.Мадрахимова, З. Ф. (2024). Литературные Загадки В Детской Поэзии: Описание, История Создания. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(1), 166-171.